ILM-FAN XABARNOMASI, SCIENCE BULLETIN, ВЕСТНИК НАУКИ
ISSN: 3030-3931 Volume 13, issue 2, May
https://doi.org/10.5281/zenodo.20050561
026

DIDAKTIK O‘YINLARNING 3–4 YOSHLI BOLALAR MANTIQIY TAFAKKURI RIVOJLANISHIDAGI O‘RNI

Yakubova Go‘zalxon Mahmudovna
Qo'qon universiteti Filologiya kafedrasi o'qituvchisi

Usmanova Zebo Avazbek qizi
Qo‘qon universiteti Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.20053602

Annotatsiya. Maqolada 3–4 yoshli bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda didaktik o‘yinlarning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Muallif maktabgacha yoshdagi bolalarning tafakkurini shakllantirishda o‘yin metodikasining ilmiy asoslarini yoritadi. K.D. Ushinskiy, Z. Dienes va M. Montessorining ta’limiy yondashuvlari, shuningdek, mahalliy olimalar tadqiqotlari asosida metodik takliflar ishlab chiqilgan. Tajriba natijalari bolalarda tafakkur, diqqat, mustaqil fikrlash va ijtimoiy ko‘nikmalar shakllanishida didaktik o‘yinlarning sezilarli ta’sirini tasdiqlaydi. Jadval va diagrammalar orqali o‘yinlar yordamida erishilgan natijalar tahlil qilinadi. Xulosa va tavsiyalarda pedagogik amaliyotda didaktik o‘yinlardan foydalanishning metodik yondashuvlari, tarbiyachi va ota-onalarning roli yoritilgan. Maqola maktabgacha ta’lim tizimida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga oid dolzarb ilmiy-amaliy yondashuvlarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: didaktik o‘yin, mantiqiy tafakkur, maktabgacha ta’lim, Montessori, Dienes bloklari, metodika, mustaqil fikrlash, diqqat, taqqoslash.

Abstract. This article explores the pedagogical potential of didactic games in developing logical thinking among 3–4-year-old children. The author outlines the scientific foundations of game-based methodology for cognitive development in preschoolers. Drawing on the educational philosophies of K.D. Ushinsky, Z. Dienes, and Maria Montessori, along with national research, the study offers methodical recommendations. Experimental results show that didactic games significantly enhance children's attention, independent thinking, and social skills. Results are presented through tables and charts, highlighting the effectiveness of structured gameplay. The conclusion provides insights into practical applications, emphasizing the role of educators and parents in supporting cognitive growth. The article contributes to contemporary approaches in enhancing logical reasoning within the preschool education system.

Keywords: didactic game, logical thinking, preschool education, Montessori, Dienes blocks, methodology, attention, comparison, independent thinking

Аннотация. В статье рассматриваются педагогические возможности дидактических игр в развитии логического мышления у детей 3–4 лет. Автор раскрывает научные основы игровой методики, формирующей мышление дошкольников. На основе подходов К.Д. Ушинского, З. Дьенеша и М. Монтессори, а также исследований местных ученых представлены методические предложения. Результаты эксперимента подтверждают положительное влияние игр на развитие внимания, самостоятельного мышления и социальных навыков у детей. Через таблицы и диаграммы проводится анализ достигнутых результатов. В заключении даны рекомендации по использованию дидактических игр в педагогической практике и подчеркивается важность участия воспитателей и родителей. Статья отражает современные научно-практические подходы в развитии логического мышления в системе дошкольного образования.

Ключевые слова: дидактическая игра, логическое мышление, дошкольное образование, Монтессори, блоки Дьенеша, методика, внимание, сравнение, самостоятельное мышление

KIRISH

Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish bugungi ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biridir. O'zbekiston Respublikasida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari hamda yangi "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi bolalarning intellektual rivojini ta'minlashda o'yinlardan foydalanishga alohida e'tibor qaratadi. Chunki 3–4 yoshli bolalarda tafakkur tez rivojlanadi va shu davrda mazkur yosh xususiyatlariga mos didaktik o'yinlar orqali ularning topqirlik, tafakkur yuritish kabi qobiliyatlarini rag'batlantirish juda muhimdir. Ta'limni o'yinga bog'lab olib borish bolalarning yoshiga ko'ra eng samarali usullardan ekani ko'plab tadqiqotlar va amaliyotda o'z tasdig'ini topgan

Bolalar uchun o'yin – bu shunchaki ko'ngilochar mashg'ulot emas, balki ularning shaxs sifatida shakllanishida muhim vositadir. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi bo'yicha adabiyotlarda bolalarning erkin o'yini hamda maxsus tashkil etilgan didaktik o'yinlar orqali ularda bilish jarayonlari rivojlantirilishi ta'kidlanadi. [1] Xususan, didaktik o'yinlar bolaning diqqatini jamlash, tez va to'g'ri fikrlash, xotirasini mustahkamlash hamda nutqini rivojlantirishga xizmat qilishi qayd etiladi.[2] Shuning uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilar ta'limiy jarayonni bolalar uchun qiziqarli o'yin shaklida tashkil etishga intilishlari lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Rus pedagogi K.D. Ushinskiy ta'kidlaganidek, "Taqqoslash har qanday tushunchaning va har qanday tafakkurning asosidir. Agar biz biror yangi narsani boshqa narsalar bilan taqqoslab, farqini bilmasak, u haqida hech qanday fikr hosil qila olmaymiz".[3] Ushinskiyning ushbu fikri maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish jarayonida o'yin metodikasiga ilmiy asos bo'ladi. Darhaqiqat, 3–4 yoshli bolalar oddiy predmetlar va hodisalar orasidagi bog'lanishni tushunishni taqqoslash orqali o'rganadilar. Didaktik o'yinlar esa bolaga ana shu taqqoslash, qiyoslash ko'nikmalarini berishga xizmat qiladi. Masalan, "Shakllarni ustma–ust qo'yish" kabi kompyuter o'yini orqali bola bir qatordagi geometrik shakllarni taqqoslab, mos tushini topishga va vazifani bajarishga o'rganadi. O'yin shaklidagi bunday topshiriqlar bolalarda mantiqan fikrlash bilan birga diqqatni jamlash, vazifani oxirigacha yetkazish kabi sifatlarni ham tarbiyalaydi.

Yevropa olimlari ham maktabgacha yoshdagi bolalarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda o'yin texnologiyalarining o'rnini alohida ta'kidlab o'tishgan. Xususan, venger psixologi Zoltan Dienes ana shunday didaktik o'yinlar tizimini ishlab chiqqan olim sifatida tanilgan. U kichik yoshdagi bolalarning matematik tasavvurlarini rivojlantirish uchun maxsus Dienes bloklarini o'ylab topgan bo'lib, bu logik bloklar to'plami 48 ta turli xildagi shakllardan iborat.[4] Dienesning mantiqiy bloklari bilan o'yinlar son-sanoqsiz ko'p bo'lib, ular yordamida

[1] "Maktabgacha pedagogika" / F. Qodirova, Sh. Toshpo'latova, N. Qayumova, M. A'zamova. – Toshkent: "Tafakkur" nashriyoti, 2019

[2] ERALIYEVA, Z. (2023). MTT ning maktabga tayyorlov guruhlarida bolalarni mantiqiy fikrlash va bahs-munozarali vaziyatlarda yechim topishga va badiiy nutqqa o'rgatish. Talqin va tadqiqotlar, 1(18).

[3] "O'yin orqali ta'lim olish" / A.V. Shin, Sh.Sh. Mirziyoyeva, I.V. Grosheva. – Toshkent, 2020.

[4] Организация подвижных игр в дошкольных образовательных учреждениях. // Физическая культура и здоровье: молодежная наука и инновации. XI халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – 2022 йил, 19 май

bolalarga rang, shakl, kattalik, qalin-yupqa, “huddi shunga o‘xshash” yoki “unday emas” kabi tushunchalarni o‘rgatish mumkin. Tadqiqotchilar E.A. Nosova va R.L. Nepomnyashchaya o‘zining “Maktabgacha yoshdagilar uchun mantiq va matematika” nomli metodik qo‘llanmasida Dienes bloklari kichik yoshli bolalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyatini yoritib bergan.[5] Shuningdek, A.A. Stolyar ham maktabgacha ta’limda bolalarga elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishda bunday didaktik o‘yinlarning samarali natija berishini alohida ta’kidlaydi.

Yana bir mashhur pedagog olima Mariya Montessori (1870–1952) o‘z metodikasida bolani erkin rivojlantirish tamoyiliga asoslangan o‘yin muhitini yaratishni taklif etgan. Montessori Italiyada birinchi ayol shifokor bo‘lib, ilmiy-pedagogik faoliyatini aynan bolalar bilan ishlashga bag‘ishlagan edi. U 1907 yilda Rim shahrida “Bolalar uyi” (Casa dei Bambini) nomli ilk maktabgacha ta’lim muassasasini tashkil etib, o‘zining yangi pedagogik yondashuvlarini amaliyotga tatbiq qilgan. Montessori metodikasining bosh g‘oyasi – bolani mustaqil o‘rganishga undovchi muhit yaratish va kattalar tomonidan ortiqcha aralashuvsiz, “Menga o‘zim bajarishimga yordam ber” shiori ostida bolaga yo‘l-yo‘riq berishdir.[6] Montessori ta’lim tizimida o‘yin va mustaqil faoliyat uyg‘unlashib ketadi: maxsus tayyorlangan muhitda bolalar o‘z qiziqishlariga ko‘ra materiallar bilan ishlaydi, tartib-intizom qoidalariga rioya qilishni va bir-biriga yordam berishni o‘rganadi. Shu tariqa, Montessori yondashuvi ham bolalarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi, chunki bolalar o‘z tajribalari orqali tahlil qilish, solishtirish va mustaqil xulosa chiqarishga o‘rgatiladi.

Ta’kidlash joizki, bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimida bolalarning tafakkurini o‘yindagi faollik orqali rivojlantirishga qaratilgan yangi yondashuvlar ham joriy etilmoqda. Masalan, D. Yuldasheva va boshqalar (2022) maktabgacha ta’limga yangicha yondashuvlar haqida tadqiqot olib borib, bunda innovatsion o‘yin texnologiyalarini qo‘llash zarurligini qayd etishgan. Xuddi shuningdek, Zamira Eraliyeva (2023) o‘z izlanishlarida maktabgacha ta’lim muassasalarining tayyorlov guruhlarida mantiqiy fikrlash hamda bahs-munozarali vaziyatlarda yechim topishga o‘rgatish usullarini ishlab chiqqan bo‘lib, buning uchun turli didaktik o‘yinlardan foydalanganligini ko‘rsatgan.[7] Bu tadqiqotlar maktabgacha yosh bolalarda tafakkurini rivojlantirishda didaktik o‘yinlarning samaradorligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, maktabgacha ta’limda o‘yin faoliyatini faqat aqliy emas, balki jismoniy rivojlanish bilan ham bog‘lash lozimligi ilmiy adabiyotlarda keltirilgan. Jumladan, harakatli o‘yinlarni tashkil etish metodikasiga oid tadqiqotlarda maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ochiq havoda va guruh mashg‘ulotlarida o‘yinlar uyushtirish ularning sog‘lom o‘sishi va ijtimoiy-emosional rivoji uchun muhim ekani ta’kidlanadi. Bu esa yana bir bor o‘yin faoliyatining bolalar hayotidagi ko‘p qirrali ahamiyatini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ish doirasida 3–4 yoshli bolalarda mantiqiy tafakkur elementlarini rivojlantirishda didaktik o‘yinlarning ta’sirini o‘rganish maqsadida pedagogik tajriba o‘tkazildi. Tajriba Qo‘qon shahar 30-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining kichik guruh tarbiyalanuvchilari orasida o‘tkazildi. Dastlab bolalarning diqqat jamlash, mantiqiy bog‘liqlikni tushunish va oddiy

[5] Nosova E.A., Nepomnyashchaya R.L. Logika i matematika dlya doshkol’nikov (maktabgacha yoshdagilar uchun mantiq va matematika). – Sankt-Peterburg: Detstvo-Press, 2007

[6] Методика Марии Монтессори: основные принципы, достоинства и недостатки. – 2016. – Elektron resurs. – URL: https://razvitie-krohi.ru/psihologiya-detey/metodika-marii-montessori.html (murojaat qilingan sana: 10.12.2025)

[7] Yuldasheva Dilafruz, Jabborova Marifatxon, Eraliyeva Zamira Rasuljonovna, Maziyayeva Muqaddasxon. (2022). MAKTABGACHA TA’LIMGA YANGICHA YONDASHUV. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(Special Issue 3), 121–125

ILM-FAN XABARNOMASI, SCIENCE BULLETIN, ВЕСТНИК НАУКИ
ISSN: 3030-3931 Volume 13, issue 2, May
https://doi.org/10.5281/zenodo.20050561
026

muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga doir boshlang‘ich ko‘rsatkichlari aniqlab olindi. So‘ng tarbiyachilar tomonidan mashg‘ulotlarga tegishli ravishda tanlab olingan turli didaktik o‘yinlar tizimli ravishda joriy etildi. O‘yinlar ketma-ketligi bolalarning qiziqishlarini uyg‘otadigan va bor bilimlarini mustahkamlashga yo‘naltirilgan tarzda tuzildi. Jumladan, shakllar, ranglar, sonlar kabi mavzular bo‘yicha “Qo‘ldan qo‘ymay o‘tkaz”, “Predmetni shakl bilan bog‘la”, “Soat nechchi?” singari qiziqarli o‘yinlar tadqiqot davomida qo‘llandi. Har bir o‘yindan oldin tarbiyachi bolalarga tegishli mavzu yuzasidan qisqa tushunchalar berib, o‘yinning qoidalari va vazifalarini tushuntirdi. O‘yinlarni o‘tkazishda bolalarning faolligi, ishtiyoqi va to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar soni kabi ko‘rsatkichlar kuzatib borildi.

NATIJALAR VA TAHLIL

Tajriba natijalari 3–4 yoshli bolalarda didaktik o‘yinlar yordamida mantiqiy tafakkur elementlarini rivojlantirish mumkin ekanini yaqqol ko‘rsatdi. Boshlang‘ich nazoratda bolalarning e’tiborini jamlash ko‘rsatkichi past bo‘lgan bo‘lsa, bir oylik o‘yinlar kursidan keyin bu ko‘rsatkich sezilarli darajada oshdi. Xususan, bolalarning diqqatni jamlash va topshiriqni oxirigacha yetkazish qobiliyatida o‘rtacha 15–20% o‘sish kuzatildi. Shuningdek, mantiqiy bog‘liqlikni topish va taqqoslash orqali yechim topish bo‘yicha topshiriqlarda ham bolalar oldingi holatga nisbatan ancha yaxshiroq natija ko‘rsatdilar. Ikki oy oxirida esa dastlabki ko‘rsatkichlar bilan solishtirganda bolalarning natijalari yanada yuqorilagan bo‘lib, ayrim bolalarda 30–35% gacha o‘sish qayd etildi.

Jadval 1. Tajriba davomida bolalarning mantiqiy tafakkuriga oid ko‘rsatkichlar (%)

Ko‘rsatkich	Dastlabki holat	1 oydan so‘ng	2 oydan so‘ng
Diqqatni jamlash	42%	60%	75%
Topshiriqni oxirigacha bajarish	38%	55%	72%
Mantiqiy bog‘liqlikni topish	40%	58%	70%
Taqqoslash orqali yechim topish	35%	53%	68%
Mustaqil fikrlash	30%	47%	65%

Natijalarni aks ettiruvchi jadval va diagrammadan ko‘rinib turibdiki, o‘yinlardan foydalanmasdan oldingi ko‘rsatkich bilan 1 oy o‘tgach erishilgan natija orasida sezilarli farq bor. Xuddi shuningdek, 2 oy o‘tgach olingan yakuniy ko‘rsatkichlar ham avvalgilar bilan qiyoslaganda ancha yuqori bo‘ldi. Bolalarning mashg‘ulot paytidagi faolligi, mustaqil fikrlashga intilishi va berilgan topshiriqlarni bajara olishi kabi mezonlar bo‘yicha ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Masalan, dastlabki davrda oddiy mantiqiy topshiriqlarni bajara olmagan ayrim bolajonlar tajriba oxirida qiyinroq vazifalarni ham mustaqil tushunib, yechishga urinayotganliklari qayd etildi. Bu esa didaktik o‘yinlar bolalarning nafaqat bilim doirasini, balki ijodkorlik va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantirishini ko‘rsatadi.

Tajriba davomida aniqlangan yana bir muhim jihat – bolalarning o‘yin jarayonida hamkorlikda ishlash va muloqot ko‘nikmalarining ortgani bo‘ldi. Guruh bo‘lib o‘ynaladigan didaktik o‘yinlar orqali bolalar bir-biriga yordam berishni, vazifani jamoa bo‘lib hal qilishni o‘rgana boshladilar. Masalan, “O‘yin ichida o‘yin” deb nomlangan o‘yinda bolalar navbatma-

navbat ko‘zi bog‘langan holda belgilangan katakchalarga sakrab, u yerda berilgan topshiriqni bajarishlari lozim edi. Ushbu o‘yinni o‘ynash jarayonida bolalar bir-birlarini yo‘l-yo‘riq bilan qo‘llab-quvvatlashdi, natijada hammaning faol ishtiroki ta’minlandi. Shu tarzda, didaktik o‘yinlar bolalarda mantiqiy tafakkur bilan birga ijtimoiy ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi.

MUHOKAMA

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha ikki oy davomida sezilarli ijobiy o‘sish kuzatildi. Ayniqsa, diqqatni jamlash (42% dan 75% gacha) va topshiriqni oxirigacha bajara olish (38% dan 72% gacha) darajasida yuqori dinamik o‘sish qayd etilgan. Bu esa shuni anglatadiki, bolalar didaktik o‘yinlar orqali vazifani anglab olish va uni izchil bajara olish qobiliyatini mustahkamlashgan.

Shuningdek, mustaqil fikrlash va mantiqiy bog‘liqlikni topish darajasidagi yuksalishlar ham o‘yin metodikasining samaradorligini ko‘rsatadi. Bu o‘sishlar nafaqat bilim darajasini, balki ijodiy fikrlash, tahlil qilish va muloqot kompetensiyalarini ham qamrab olgan.

Tahlil natijalariga ko‘ra, tajriba guruhidagi bolalarning darslarga bo‘lgan qiziqishi oshgan, ular mashg‘ulotlarda faolroq qatnashgan va ijtimoiy muloqotda ochiqlik ko‘rsatgan. Bunday o‘zgarishlar, ayniqsa, guruh o‘yinlari orqali erishilgan bo‘lib, o‘zaro yordam, navbatni kutish va jamoa ishtirokini talab etuvchi o‘yinlar ko‘proq foyda bergan.

XULOSA VA TAVSIYALAR

O‘tkazilgan tadqiqot 3–4 yoshli bolalarda mantiqiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishda didaktik o‘yinlar muhim o‘rin tutishini tasdiqlaydi. Didaktik o‘yinlar bolalarning atrof-muhit hodisalarini solishtira olish, o‘xshash va farqli jihatlarni ajratish, sabab-oqibat bog‘lanishlarini tushunish kabi mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini oshiradi. Shu bilan birga, o‘yin jarayonida topqirlik, hozirjavoblik, diqqatni bir joyga to‘plash, vazifani oxirigacha bajarish kabi sifatlar ham tarbiyalanadi. Tajriba natijalariga ko‘ra, mazmunan puxta o‘ylangan va bosqichma-bosqich qo‘llanilgan didaktik o‘yinlar ikki oy ichida bolalarning mantiqiy tafakkur ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilagan.

Didaktik o‘yinlarni maktabgacha ta’lim tashkilotlari dasturlariga keng joriy etish zarur. Bu borada xorijiy va mahalliy tajribalarni o‘rganish, mashhur pedagoglarning tavsiyalariga asoslanish maqsadga muvofiqdir. Xususan, K.D. Ushinskiy, M. Montessori, Z. Dienes singari pedagoglarning ilmiy-merosidan foydalanish, shuningdek, zamonaviy innovatsion o‘yin texnologiyalarini tatbiq etish bolalarning intellektual rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, 3–4 yoshli bolalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda didaktik o‘yinlar ulkan imkoniyatlarga ega ekanligi amaliy tajribada isbotlandi. Bunday o‘yinlar yordamida bolajonlar bilimni o‘zlashtirish jarayonini qiziqarli va samarali shaklda o‘tadilar. Kelgusida maktabgacha ta’limda didaktik o‘yinlar repertuarini boyitish, pedagog kadrlarni o‘yin texnologiyalari bo‘yicha muntazam o‘qitib borish va ota-onalarni ham bu jarayonga jalb etish orqali bolalar tafakkurini yanada kamol toptirish mumkin bo‘ladi.

Didaktik o‘yinlarning 3–4 yoshli bolalar mantiqiy tafakkurini rivojlantirishdagi yuqori samaradorligini hisobga olib, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida quyidagi amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

– Tarbiyachilarning didaktik o‘yinlar metodikasiga oid bilim va amaliy ko‘nikmalarini oshirish bo‘yicha maxsus treninglar, seminarlar va amaliy mashg‘ulotlar tashkil etilishi lozim. Bu orqali o‘yin vositalaridan maqsadli va tizimli foydalanish madaniyati shakllantiriladi.

– Har bir ta’lim sohasi (matematika, til va nutq, tabiatshunoslik, san’at va boshqalar) bo‘yicha mavzuga mos didaktik o‘yinlar repertuari ishlab chiqilishi, metodik qo‘llanmalarda ularning tavsifi va qo‘llash mexanizmlari batafsil bayon etilishi kerak.

ISSN: 3030-3931 Volume 13, issue 2, May
https://doi.org/10.5281/zenodo.20050561
026

– Ta’lim muassasalarida o‘yinlar o‘tkazish uchun yetarli miqdorda didaktik materiallar, rangli ko‘rgazmali vositalar, konstruktiv to‘plamlar va boshqa o‘yin anjomlari bilan moddiy-texnik baza mustahkamlanishi zarur.

– Guruhdagi bolalar soni ko‘pligini inobatga olib, mashg‘ulotlar jarayonida kichik guruhlarda ishlash, yordamchi tarbiyachilar yoki praktikantlarni jalb etish orqali individual yondashuv imkoniyatlari kengaytirilishi maqsadga muvofiq.

– Ota-onalar bilan hamkorlikda bolalarning uy sharoitida ham didaktik o‘yinlar bilan shug‘ullanishini rag‘batlantirish, ularga oddiy, amaliy o‘yin metodlari haqida tavsiyalar berish ta’limiy uzviylikni ta’minlashda muhim omildir.

– Elektron didaktik o‘yin dasturlari va interaktiv qurilmalardan pedagogik maqsadlarda oqilona foydalanish imkoniyatlarini o‘rganish, bu yo‘nalishda zamonaviy IT-yechimlarni tatbiq etish istiqbollidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova, M.T. Maktabgacha yoshdagi bolalarda fikrlash faoliyatining shakllanishi. – Toshkent: Fan, 2022. – 112 b.
2. Rajabova, G.M. Maktabgacha ta’lim metodikasi. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2021. – 160 b.
3. Qodirova, M.R. Maktabgacha ta’limda o‘yin texnologiyalarining o‘rni // Ilmiy-amaliy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – №6. – B. 88–93.
4. Zunnunova, G.Z. Maktabgacha ta’lim jarayonida didaktik o‘yinlardan foydalanish metodikasi // Pedagogik innovatsiyalar va texnologiyalar. – 2022. – №3. – B. 42–47.
5. Saidova, D.A. Maktabgacha ta’limda bolalarda mantiqiy tafakkurni shakllantirish vositalari // Ijtimoiy-gumanitar fanlar. – 2023. – №2(16). – B. 25–30.
6. Kadirova, M.M. Didaktik o‘yinlarning bolalar tafakkuriga ta’siri // Ta’limda raqamli texnologiyalar. – 2023. – №5. – B. 59–64.